

PSIXOLOGIK MARKAZ FAOLIYATI

Matnazarova Hadicha

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada psixologik markaz faoliyati haqida umumiy tushunchalar ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *tadqiqot ishlari, amaliy ishlar, tashviqot ishlari, inson psixologiyasi.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются общие представления о деятельности психологического центра.*

Ключевые слова: *научно-исследовательская работа, практическая работа, пропагандистская работа, психология человека.*

Abstract: *This article reveals the general concepts of psychological center activities.*

Key words: *research work, practical work, propaganda work, human psychology.*

Inson psixologiyasini tushunish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan. So'nggi yillarda mamlakatimizda aholiga psixologiya xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyatimizda psixologlarga bo'lgan talabni yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019 yil 8 oktyabrdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-son "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda 2019 yil 7 iyundagi 472-son "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarni oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari ijrosi yuzasidan amaliy chora-tadbirlar qo'llanmoqda.

Hozirgi bosqichda psixologik xizmat faoliyatining 2 yo'nalishi: dolzarb va kelajak yo'nalishlari mavjud. Dolzarb yo'nalish kursantlar ta'lim tarbiyasidagi qiyinchiliklar, ular xulq-atvoridagi, muloqotdagi va shaxsi shakllanishidagi buzilishlar bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan. Kelajak yo'nalishi har bir shaxs individualligini rivojlantirishga, jamiyatda yaratuvchanlik hayotiga psixologik tayyorlikni shakllantirishga qaratilgan. Psixolog pedagogik jamoa faoliyatiga har bir o'quvchi shaxsi garmonik rivojlanish imkoniyatlari haqida asosiy psixologik g'oyani olib kiradi. Ikki yo'nalish ham bir-biri bilan bog'liq. Psixolog o'zining inson xulq-atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari haqidagi kasbiy bilimlariga,

ularning 4 kursantlar va harbiy xizmatchilar, tengdosh-hamkasblari bilan o'zaro munosabat xususiyatlariga, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog'liqligiga tayanib, shaxsga individual yondashuv imkoniyatlarini ta'minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlarning bo'lishi mumkin bo'lgan sabablarini psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo'llarini aniqlaydi. Bu bilan psixologik xizmat ta'lim muassasasida o'quv tarbiya ishining mahsulдорligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

Psixologik xizmatning asosiy vazifasi - tadqiqot ishlari, amaliy ishlar va tashviqot ishlaridan iborat 3 ta vazifadan tashkil topadi. Psixologik xizmatning uchala vazifasi o'zaro chambarchas bog'liq, ularning birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Bugungi kunda ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan amaliyotchi-psixologlar doimiy ravishda mutaxassislik va pedagogik bilimlarini oshirib borishlari, yangi pedagogik va psixologik bilimlar bilan izchil tanishib borishlari, shuningdek kasbiy tajribani o'zlashtirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil eta olishlari lozim.